

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar

Joriy davrda 7023,8 mlrd so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, ularning 65,3 % iyoki 4586,2 mlrd. so`m jalb etilgan mablag`lar hisobidan moliyalashtirilgan bo`lsa, korhona va tashkilotlarning o`z mablag`lari hisobidan 34,7 %, yoki 2437,6 mlrd. so`m moliyalashtirildi.

• Markazlashtirilgan mablag`lar hisobiga: 4586,2 mlrd.so'm

• O'z mablag`lari hisobidan: 2437,6 mlrd. so'm



• Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 7023,8 mlrd.so'm

Asosiy kapitalga investitsiyalar

yanvar-sentyabr 2019 yil

Hisobot davrida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga 2460,2 mlrd.investitsion mablag' yoki jami investitsiyalarning 35,0% ni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu davriga qaraganda deyarli 28,7 marta ko'pdir. Hisobot davrida markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 4563,6 mlrd. so'm o'zlashtirildi va 2018 yil yanvar-sentyabriga nisbatan 65,0 % ga oshdi.


Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga 1764,1 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar jalb qilindi, yoki jami investitsiyalarning 25,1 foizi o'zlashtirildi. Aholining mablag'lari hisobidan 673,5 milliard so'm investitsiyalar, yoki 9,6 foiz investitsiyalar o'zlashtirildi.

Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 1147,6 mlrd. so'mlik xorijiy kreditlar ajratildi bu esa 2018-yil yanvar-sentyabriga nisbatan 58,6 foizga ko'pdir yoki jami investitsiyalarning 16,3% ini tashkil etadi.

Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 534,2 mlrd.so'm ni tashkil etdi (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 7,6 % ni tashkil etdi), bu o'tgan yilga nisbatan, 63,4 foizga kamaygan, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 1591,8 mlrd (22,7 % va 2,8 martaga o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshgan), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan – 277,7 mlrd.so'm (4,0 % va 42,8 foizga kamaygan), Respublika byudjetidan – 958,1 mlrd.so'm (13,6 % va 97,4 % ga oshgan), Suv taminoti tizimini rivojlantirish jamgarmasidan- 57,1 mlrd.so'm (0,8 % va 47,2 foizga oshgan) va Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasidan – 19,7


Asosiy kapitalga investitsiyalar

yanvar-sentyabr 2019 yil



- Respublika byudjeti
- Suv ta'minoti tizimini rivojlantirish jamg'armasi
- Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
- O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlari
- Korxonalar, shu jumladan mahalliy byudjet mablag'lari
- Aholi mablag'lari
- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar
- Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
- Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi

**Mulkchilik shakllari bo'yicha asosiy
kapitalga kiritilgan investitsiyalarning
ulushi
(foizda)**




%

Nodavlat mulkchilik shakli

yanvar-sentyabr 2019y

%

Davlat mulkchilik shakli



yanvar-sentyabr 2019y



Hisobot davrida asosiy kapitalga nodavlat mulki asosida kiritilgan investitsiyalar hajmi o'tgan yilga nisbatan 6,9 foizga kamaydi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar


Tumanlar	mlrd.sum	o'sish sur'atlari, %	Umumiy hajmga nisbatan% da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	7023,8	134,1	100
Respublika byudjeti	958,1	197,4	13,6
Suv ta`minoti tizimini rivojlantirish jamg`armasi	57,1	147,2	0,8
Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi	19,7	133,9	0,3
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	277,7	42,8	4,0
O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari	1147,6	158,6	16,3
Korxonalar mablag'lari	1764,1	131,4	25,1
Tijorat banklaridan kreditlar va boshqalar qarzi mablag'lari	534,2	63,4	7,6
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	1591,8	277,0	22,7
Aholi mablag'lari	673,5	123,6	9,6

Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlari davlat byudjeti hisobidan - o'tgan yilning shu davriga nisbatan 197,4 foizga oshgan. O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar bo'yicha 158,6 foizga oshgan. Bu Taxiato'sh issiqlik elektr stansiyasida yirik investitsion loyiha - har biri 230-280 MVt quvvatga ega ikkita gaz-bu'lovchi uskunalarning qurilishi bilan bog'liq. Bu yirik loyihaning qurilishi 2017-yil oktyabr oyidan boshlanib, tugatilish jarayoni 2022 yilgacha belgilangan.

Tumanlar va shaharlar nomlari	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi, milliard so'mda	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlari, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7023,8	134,1
Amudaryo	170,5	112,2
Beruniy	172,5	108,9
Qorao'zak	456,0	168,9
Kegeyli	88,4	110,3
Qo'ng'irod	984,1	114,8
Qonliko'l	93,5	177,3
Mo'ynoq	989,4	340,9
Nukus tumani	163,4	150,8
Taxiatosh	1383,7	94,2
Taxtakopir	49,6	115,0
To'rtko'l	478,1	323,4
Xo'jayli	215,9	181,3
Chimboy	137,5	134,5
Shumanoy	60,5	102,5
Ellikqal'a	345,6	121,3
Nukus shahri	1235,1	118,1


Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yo`qori o'sish sur'atlari Turtkul tumanida kuzatildi-o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,2 martaga oshdi, bu quvvatligi 2,1 mlrd.kub.metr bolgan suv saqlagich qurilishi bilan bog`liq va shuningdek ijtimoiy ob'ektlarni qurish va rekonstruksiyalash hisobiga bundan tashqari, Muynoq tumanida yo`qori o'sish sur'atlari kuzatildi – 340,9 foizni tashkil etdi, ushbu tumanda ijtimoiy ob'ektlarni qurish davom etmoqda. Xo`jayli tumanida ham yo`qori o`sh sur`ati kuzatildi (181,3 %) bu esa tog`ridan-tog`ri chet el investitsiya va kreditlari hisobidan ofset qog'oz ishlab chiqarish shuningdek, qizilmiya ildizlarini qayta ishlash va issiqxona inshootlarini o'rnatish ishlari bilan bog`liq.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi.



Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari uchun 3983,9 mlrd.so'm ajratildi, bu asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 56,7 % ini tashkil etdi, mashina, asbob-uskuna va inventarlarni harid qilish uchun yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 2865,1 mlrd. so'm ni tashkil etdi (asosiy kapitalga umumiy investitsiyalardagi ulushi 40,8 %) va boshqa xarajatlar– 174,8 mlrd.so'm ni (2,5 %).

Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga yo`naltirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



Hisobot davrida asosiy fondlarga kiritilgan investitsiyalarning ko'p qismi mavjud ob'ektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya va texnik jihatdan qayta jihozlashga qaratilgan bo'lib, 5251,0 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 74,7 % ni tashkil etdi.

Yangi qurilishga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1045,8 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu 14,9 % ni, qolgan 10,4 % yoki 727,0 mlrd. so'mni boshqa sohalarga yo'naltirildi.



• O`rmon, baliqchilik va qishloq xo`jaligi
13,0 %



• Tog`-kon sanoati
23,5 %



• Qayta ishlash sanoati
16,0 %



• Elektr ta`minoti, gaz etkazib berish va bug`langan havo
18,7 %



• Suv ta`minoti va kanalizatsiya
2,0 %



• Qurilish 1,4 %



• Tashish va saqlash
3,3 %



• Ta`lim 3,6 %




• Uy joy qurilishi
11,0 %



• Boshqa yo`nalishlar
7,5 %


Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar (ming.sum)



Tog'-kon sanoati tarmog'ida 1652,5 mlrd.so'm yoki umumiy investitsiyalarning 23,5 % o'zlashtirilib, shundan 1561,7 mlrd.so'm yoki jami investitsiyalarning 22,2 % tabiiy gazni qazib olishga (yangi gaz quduqlarini qurish) o`zlashtirildi.

Bundan tashqari ta`lim sohasiga 255,1 mlrd.so`m o`zlashtirilib, umumiy ulushning 3,6 % ini tashkil etdi. Sog`liqni saqlash sohasiga 102,9 mlrd so`m , bu esa «Obod qishloq» va «Obod mahalla» davlat loyihalarining bajarilishi bilan bevosita bog`liq. Jami investitsiyaning 11,0 foizi yani, 775,5 mlrd.so`mi uy joy qurilishiga sarflandi.Qishloq xojaligi faoliyat turiga 915,1 mlrd.so`m uzlashtirildi, ulushi 13,0 % tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar (jamiga nisbatan, foizda)



Jalb etilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 36,8 foizi elektr energiyasini va gaz yetkazib berish faoliyat turiga to'g'ri keldi va 30,3 foizi tog' -qayta ishlash sanoati faoliyat turiga o'zlashtirildi.

O`quv jarayonini yanada takomillashtirish bo`yicha chora tadbirlar doirasida, umumta`lim va ixtisoslashtirilgan (maktabgacha ta`lim muassasalari) maktablar qurilishi va rekonstruksiyasiga 136,6 mlrd.so`m investitsiya o`zlashtirilib, ta`lim sahosisga ajratilgan investitsiyaning 53,5 foizni tashkil etdi. Ulardan 37,0 mlrd.so`mi yangi qurilishga, 99,6 mlrd.so`mi mavjud muassasalarni qayta ta`mirlashga sarflandi.

Maktabgacha ta`lim muassasalarini qurish va qayta ta`mirlashga alohida e`tibor qaratilmoqda va hisobot davrida 74,1 mlrd.so`m mablag` ajratilib shundan, 14,5 mlrd so`mi yangidan barpo etishga, 59,6 mlrd so`mi esa mavjud bo`lgan muassasalardi qayta ta`mirlashga sarflandi. Qungrot, Qorao`zak tumanlarida har biri 160 o`rinlikga muassasa yangidan qurilip foydalanishga topshirildi. Xo`jayli tumanida 120 o`rinlik va Chimboy tumanida 100 o`rinlik, Qanlikul tumanida 70 o`rinlik muassasa qayta ta`mirlanip, foydalanishga topshirildi.

Hisobot davrida bolalar musiqa va san`at maktablari binolarining qurilish ishlari davom etmoqda va ajratilgan investitsiyalarning hajmi 13,9 mlrd.so`mni tashkil etdi.

Mo`ynoq tumanida maydoni 1000 kv.m bolgan suzish havzasining qurilishi yakunlanip, foydalanishga topshirildi va qiymati 6,1 mlrd so`mni tashkil etdi.

Hisobot davrida uzunligi 227,5 km lik suv tarmoqlari otkazildi, shundan 82,2 km-i qishloq joylariga to`gri keldi.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi bo`limi

Nashr uchun mas`ul: Z.Seytimbetova

(0361) 222-75-91

(8372) 230-82-13

(8372) 230-82-14